UO‘K 398 (575.1)

EPIK ONG, EPIK XOTIRA VA EPIK BILIM MUNOSABATI

B.M. Rahmonov

Maqolada o‘zbek folklorshunosligida epik ong, epik xotira, epik bilim an’analari so‘nishining obyektiv va subyektiv sabablari tahlil qilingan. Bu borada hozirgacha birorta ilmiy fikr-mulohaza bildirilmaganligini hisobga olib, ularning estetik mohiyati, o‘zbek dostonchiligida tutgan o‘rni, bir-biri bilan uzviy munosabati, umumiy va xususiy tomonlari haqida ilmiy qarashlar bayon etilgan. Epik ongning bugungi zamon postfolklor sharoitidagi ijodiy jarayonga javob bera olmasligi va dostonlarda ijrochilik davom etayotgan bo‘lsa-da, ijodiylikning so‘nish sabablari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *epos, xalq eposi va zamon masalasi, xalq dostonlari, xalq eposi va zamonaviylik, epik ong, klassik epos.*

В статье анализируются объективные и субъективные причины угасания традиций эпического сознания, эпической памяти и эпических знаний в узбекской фольклористике. Учитывая, что о них до сих пор не высказано научного мнения, представлены научные мнения об их эстетической сущности, месте в узбекском эпосе, органической взаимосвязи друг с другом, общих и специфических аспектах. Неспособность эпического сознания реагировать на творческий процесс в сегодняшних постфольклорных условиях и продолжающийся перформанс в эпосе раскрывают причины угасания творчества.

Ключевые слова: *эпос, народный эпос и вопрос времени, народные эпосы, народный эпос и современность, эпическое сознание, классический эпос.*

Epos xalqning bahodirona o‘tmishini ideallashtirish orqali uning ijtimoiy adolat, ozodlik, farovon turmush, sevgi, do‘stlik, mehnatsevarlik hamda vatanparvarlik haqidagi orzu-istaklarini ifoda etuvchi ulkan ma’naviy xazinadir. Ayni shunday olijanob g‘oyalar ifoda etilgani uchun ham xalq eposi hamma vaqt, hamma joyda zamonaviylik kasb etadi. Ammo epos va zamon muammosi faqat yuqoridagi xususiyat bilan cheklanmaydi. Bu muammoning ham ilmiy tahlil va talqin etiladigan nazariy masalalari anchagina. Ana shunday masalalardan biri, bizning nazarimizda, xalq dostonlarining bugungi holati, xalq epik ijodining hozirda yaratilishi va uning zamondoshimiz ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Belorus folklorshunosi K.P.Kabashnikov o‘tgan asrning 80-yillarida ayni masala haqida to‘xtalib shunday yozgan edi: “Xalq og‘zaki ijodining hozirgi holatini aniqlash og‘zaki badiiy ijodning zamondoshimiz ma’naviy hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini, bugungi kunda folklor jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash masalasidir” [1. B. 253]. Mana shundan kelib chiqilsa, xalq eposi va zamon muammosi folklorshunoslar diqqat e’tiborini dostonchilik an’analari, ularning bugungi ma’naviy hayotimizda tutgan o‘rnini, dostonchilik san’atining hozirgi holatini ikir-chikirlari bilan jiddiy o‘rganishga qaratish zaruratini ko‘rsatadi. Chunki xalq eposi va zamonaviylik masalasi milliy madaniyatimiz tarixi, sarchashmalarining bugungi qismati haqida jiddiy asoslangan xulosalar bildirishni talab etadi.

Eng avvalo, shuni eslatib o‘tish kerakki, xalq eposi hamma vaqt bir-biri bilan uzviy bog‘langan ikki jarayonni o‘zida mujassam etgan. Birinchisi – xalq dostonlarining iste’dodli baxshilar tomonidan yaratilishi, ikkinchisi – yaratilgan epik namunalarni xalq orasida ijro etish jarayoni. Xalq eposi gurkirab rivojlangan davrlarda, boshqacha qilib aytganda, “epik davr” gullagan XVI asrdan XX asrning o‘rtalariga qadar ijod va ijro jarayoni birgalikda kechdi. Ijod va ijroni o‘zining qo‘sh qanoti deb bilgan ulkan iste’dod egalari – baxshilar asrlar osha ajdodlardan avlodlarga etib kelgan epik an’analarni ijodiy qayta ishlab, ularni zamon talablariga moslab kuylaydilar.

Ammo vaqt o‘tishi, kishilar maishiy turmushi va dunyoqarashining o‘zgarishi, ayniqsa, dostonchilikni haqiqiy ma’noda rivojlantirib turgan baxshichilik san’ati tarkibida yuz bergan jiddiy siljishlar xalq eposi taraqqiyotini ta’minlab turgan ikki jarayondan birining so‘nishiga olib keldi. Natijada xalq dostonchiligida ijrochilik jarayoni hozir ham saqlanib qolganligiga qaramay, ijodkorlik asta-sekinlik bilan so‘ndi. Professor B.Sarimsoqov bundan ancha yillar muqaddam baxshilik san’atida ijodiylik an’anasining so‘nayotganligi haqida achinish bilan shunday yozgan edi: “Yozma she’riyatimiz vakillari tinmay ham mazmuniy, ham shakliy izlanishlar, ijodiy tajribalar olib borib, turli yo‘llar bilan zamondoshimiz qalbida etilib turgan tug‘yonlarga, miyasida pishib turgan fikrlarga yo‘nalish bersa-yu, xalq baxshilari hamon quruq maqtov hamda deklorativlikdan chiqa olmasalar, hali yozuv kashf etilmagan uzoq davrlardan buyon to shu kunlarga qadar xalq dilini maftun etib kelgan baxshilik san’atining kuch-qudratiga shubha bilan boqib qolar ekan kishi” [2. B. 3].

Darhaqiqat, xalq baxshilari hozir faqat jonli ijro bilan yashamoqdalar, ularda ijodiylik, ayniqsa, zamon muammolarini aks ettirish mutlaqo yo‘q. Chunki, professor B.Sarimsoqov haqli qayd etganidek, yangi hayotiy mazmunga mos keluvchi badiiy shakl sovet davri xalq eposida kashf etilmadi [2. B. 34]. Zamon bilan hamnafaslik, hamqadamlik bo‘lmas ekan, har qanday ijod turida ham so‘nish yuz berishi turgan gap. O‘zbek baxshilik san’ati bilan bog‘liq holda xalq eposining hozirgi ahvoli haqida shuni aytish lozimki, endilikda ijodiylik jarayonining so‘nishi xalq eposining faqat an’anaviy san’at namunasi sifatida yashashigagina huquq beradi, xolos.

Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi? Bu jarayonning hayotiy-estetik sabablari bormi? Agar bor bo‘lsa, ular nimalardan iborat? Bizning nazarimizda, o‘zbek xalq eposida hozir ijodiy jarayonning so‘nishi, faqat ijrochilik jarayonining saqlanib qolishi obyektiv hamda subyektiv sabablar tufayli sodir bo‘lmoqda. Eng avvalo, obyektiv sabablar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ular ham ikkita muhim omil bilan izohlanadi.

Birinchi omil epos ijodkorligi uchun zarur bo‘lgan hayotiy shart-sharoitlar o‘zgarib ketganligidan iborat. Xalq ijodi, ayniqsa, xalq eposi badiiy-tarixiy kategoriya sifatida hamma vaqt xalq hayoti, uning etnik tarkibi, maishiy turmush tarzi bilan bog‘liqlikda yashaydi. Oktyabr to‘ntarishidan keyingi o‘tgan davr mobaynida xalqning hayotida, kishilar ongida yuz bergan o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan an’anaviy folklor janrlarining jonli yashashi, estetik va utilitar vazifalar ado etishida ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir esa:

– xalqning udumlari, rasm-rusumlari, marosimlari va dunyoqarashida yuz bergan o‘zgarishlar tufayli sodir bo‘ldi. Masalan, Sho‘rolar davrida inson tug‘ilishidan tortib to vafotiga qadar amalga oshiriladigan barcha udum-u marosimlar ma’lum darajada taqiqlab qo‘yildi, beshik va u bilan aloqador allalar ijro etilmadi, sunnat va nikoh to‘ylari bilan bog‘liq ko‘pgina janrlar iste’moldan tushib qoldi. Hozir esa ana shu janrlarning aksariyatini yoshlar ijro etmay qo‘ydilar. Bu esa endilikda an’anaviy folklor janrlarining hozirgi holatini, ulardagi ijodiylik va ijrochilik jarayonlarining nisbatini to‘la yoki hududiy miqyoslarda maxsus o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi;

– xalqning yoppasiga savodxonlikka erishishi natijasida so‘z san’atining ikki shakli – og‘zaki va yozma adabiyot o‘rtasidagi nisbatning ikkinchisi hisobiga hal bo‘lishi ham folklor janrlarining hozirgi holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi;

– ommaviy axborot vositalari, radio va televideniyening, kino san’atining jamiyat hayotida belgilovchi rol o‘ynashi ham xalq og‘zaki ijodi, xususan, dostonchilik san’atining ijodiyligiga salbiy ta’sir etdi. Bular tashqi hayotiy omillardir.

Ikkinchi omil esa xalq baxshilari faqat an’anaviy epik material bilan cheklanmay, zamonaviy voqelikni aks ettirishga, zamondoshimiz ruhiyatini ifodalashga qodir badiiy izlanishlar olib bormasligidan iborat. Bular xalq eposi estetikasiga oid nazariy sabablardir. Ayni mana shu sabab xalq eposini bugungi ijtimoiy hayot talablaridan ortda qolishiga olib keldi. Yuzaki qaralsa, bu narsa arzimasdek tuyuladi, ammo jiddiyroq yondashilsa, xalq eposidagi ijodiylikning so‘nishiga olib boruvchi badiiy-estetik sabablar ancha chuqur va muhim ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Bizning nazarimizda, xalq dostonchiligida ijodiylikning zamon talablariga javob bera olmasligiga hozirgi avlod baxshilari estetik qarashlarida epik dunyo va eposga xos badiiy til, ana shu til bilan bog‘liq holda badiiy tasvir ham-

da ifoda vositalarining ishlab chiqilmaganligi sabab bo‘ldi.

Epik dunyo ajdodlar ongida shakllangan badiiy borliqdan iborat bo‘lib, u epik voqelikda faoliyat ko‘rsatuvchi personajlar xatti-harakati, ularning makon va zamon haqidagi tasavvurlari, shuningdek, ijtimoiy, etnik hamda maishiy universiumlardan tashkil topgan. Bu dunyo tugal epik badiiy sistem xarakteriga ega, mohiyat jihatidan esa real dunyo bilan shartli munosabatda bo‘ladi.

Taniqli rus folklorshunosi B.N.Putilov ilk bor epik dunyoning ikki xususiyatini ko‘rsatgan edi. Ulardan birinchisi – epik dunyo komponentlarining omma estetik ideallari asosida alohida tanlanganligi. Ikkinchisi esa epik dunyo xalq eposining barcha tiplari uchun tipik xarakterga egaligi hisoblanadi [3. B. 170].

B.N.Putilov ko‘rsatgan xususiyatlarni o‘zbek an’anaviy xalq eposiga nisbatan qo‘llasak, epik dunyoga xos yetakchi xususiyatlar to‘g‘ri belgilanganligi tasdiqlanadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi epik makon – Chambil mamlakati xalqning estetik ideallariga mos keluvchi, orzu-istaklarini o‘zida tashuvchi obod va farovon epik makon ekanligi buni to‘la tasdiqlaydi. Bu epik makonda kishilar Go‘ro‘g‘li, Avaz va Hasanlar rahnamoligida tinch-totuv yashaydilar, mamlakatni o‘zga makonlardagi kishilar tajovuzidan himoya qiladilar. Epik Chambil mamlakati shartli makon bo‘lib, uni real dunyo xaritasidan qidirish, u yoki bu toponim bilan qiyoslash mumkin emas. Shuning uchun ham Chambil o‘ziga xos tugal badiiy sistem sifatida xalqning epik xotirasida saqlanadi.

Chambil mamlakati birgina doston uchun emas, balki “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari uchun tipik epik dunyo hisoblanadi. Ushbu turkumga mansub barcha asarlarda Chambil bir xil xususiyat va sifatlarda tasvirlanadi.

Keyinroq B.N.Putilov epik dunyoga xos yana boshqa xususiyatlarni ham ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar esa epik dunyoning fantastik va badiiy-shartli tabiatga ega ekanligida ko‘zga tashlanadi [4. B. 170].

O‘zbek xalq dostonlarida ham epik dunyo kuchli xayolot qudrati tufayli yaratilgan. Masalan, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari boshlanmasida bu epik shaharning obod va mustahkamligi, salobati mubolag‘ali tarzda “oltmish otxonali, yetmish to‘pxonali, sakson sardobali” kabi epitetlar bilan baholanib tasvirlanadi. Epik dunyo tabiatiga xos shartlilik va fantastikani olim xalq eposining genetik jihatdan realistik san’atga qadar vujudga kelganligi bilan izohlaydiki, xalq epik ongining mifologik, groteskli-realizm [5. B. 24–31] va romantizm metodlari asosida shakllanganligi buni tasdiqlaydi.

Epik dunyoga xos yuqorida qayd etilgan barcha xususiyatlar real dunyo bilan mutlaqo mos kelmaydi. Epik dunyo barcha vaqt, barcha xalqlar eposi uchun tipologik hodisa bo‘lsa, real dunyo hamma vaqt alohidalik, o‘ziga xoslikka ega. Epik dunyoga xos badiiy shartlilik va fantastikani hisobga olmay ayrim tadqiqotchilar uni dunyo bilan qiyoslashga, tenglashtirishga urinadilar. O‘zbek qahramonlik eposi “Alpomish”dagi Boysun-Qo‘ng‘irot yoki Qalmoq yurtini, Alpomish bilan Qorajon uchrashadigan Murodtepani, Arpali cho‘lini yoxud Hakimbek tashlangan chohni real dunyodagi joylar bilan bog‘lab izohlashga harakat qiladilar.

Masalan, professor M.Murodov va A.Ergashevlar epik dunyo xarakterini nazardan soqit qilib, dostondagi ko‘pgina joylarni real dunyodagi joylar bilan tenglashtirib, Alpomish chohi, Qayqubodning kamari, Halgunchaktepa, Tovkaning qo‘rg‘oni deb talqin qiladilar. Bu narsa, bir tomondan, eposdagi o‘ziga xos dunyo tabiatini to‘g‘ri tushunmaslik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, epik dunyo haqidagi an’anaviy tasavvurlarni noto‘g‘ri qabul qilishga olib keladi [6. B. 59–68]. Chunki epik dunyo xalq eposida barqaror epitetlar bilan tasvirlangan an’anaviyligi hamda o‘ziga xos epik dalillar bilan ihotalanganligi bilan ajralib turadi. An’anaviy xalq eposi namunalarini o‘rganish shundan dalolat beradiki, epik dunyoga biror sabab bilan kirib qolgan real dunyo elementlari ham epik dunyo talablari va qoliplari asosida talqin qilinib, o‘z reallik xususiyatlarini yo‘qotadi. Buning bosh sababi esa epik dunyo badiiy tafakkur bilan, ideal xayolot bilan bog‘liqlikda yaratilishidadir.

Ma’lum bo‘ladiki, xalq dostonlarining hozirgi real voqelikni tasvirlay olmasligi epik dunyoning an’anaviyligi va tasvir usullari hamda prinsiplarining qotib qolganligi bilan aloqador. Real voqelik, real makon va zamon epik dunyo an’anaviyligiga bo‘ysunmaydi. Mana shuning uchun ham bugungi voqelikni butun shiddati va

dinamikasi, bugungi inson ruhiyatidagi kuchli dolg‘alarni xalq dostonlari barcha murakkabligi bilan qamrab ololmaydi.

Barcha xulosalarda ham ma’lum darajada istisnolar bo‘lishi tabiiy bo‘lganidek, bizning yuqoridagi xulosamiz ham ayrim tahrirlarni, keyingi davr eposi namunalarini jiddiy o‘rganish bilan bog‘liq holda ba’zi to‘ldirish va aniqlashlarni talab etadi. Shunga qaramay, XX asrning birinchi yarmida yaratilgan ayrim dostonlar epik dunyo tabiatiga o‘ziga xos tahrirlar kiritdi. Boshqacha aytganda, XX asr o‘zbek dostonchiligi an’anaviy epik dunyo tabiatida ham o‘z izini qoldirdi. Ayni shu asrning birinchi yarmida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Islom Nazar o‘g‘li, Xolyor Abdukarim o‘g‘li kabi yirik o‘zbek baxshilari asr boshlaridan to 40-yillarga qadar xalqimiz boshidan kechirgan tarixiy voqealarni aks ettiruvchi bir qator dostonlar yaratdilar. Bu dostonlardagi epik voqelik, makon va zamon, personajlar, syujet va kompozitsiya an’anaviy dostonlardagi epik dunyo, epik sotsium, epik universiumdan keskin farqlanadi. Chunki ularning har biriga xos epik dunyo mavjud va ular bir-birlarini takrorlamaydilar. Hozir bu tipdagi dostonlarni ayrimlar buyurtma asosida yaratilgan sun’iy asar deb hisoblasalar, ayrimlar ularga umuman munosabat bildirishdan ham voz kechdilar. Dostonlar turli buyurtmalar asosida yaratilganligidan, ulardagi epik dunyo tabiatining keskin o‘zgarganligidan qat’i nazar, o‘zbek xalq eposi tarixi va rivojida tub burilish yasadi deyishga asos beradi. Xalq baxshilari bunday epik mahsullari bilan o‘zlarining fenomenal qobiliyatlarini bir karra isbotlab berdilar. B.Sarimsoqov “avtorli ijod” deb atagan XX asr o‘zbek dostonlari haqida bizning alohida to‘xtalish niyatimiz bor. Shu bois yangi dostonlardagi epik dunyo masalasini shu o‘rinda yakunlaymiz.

An’anaviy epik dunyo epik til bilan bog‘liqlikda amal qiladi. Albatta, epik dunyo va epik til kategoriyalari eposshunoslikning ulkan nazariy masalalari bilan uzviy bog‘liq. Shu bois B.N.Putilov ularni uch sathda tadqiq etishni tavsiya etadi. Bular milliy, millatlararo va xalqaro tipologik sathlardan iborat [4. B. 9]. Chunki epos o‘z tabiatiga ko‘ra sof milliy hodisadir. Binobarin, u muayyan milliy til va milliy shaklda yaratiladi. Har bir millat epos namunalarining stadial taraqqiyot qonuniyatlari epik namunalarining epik dunyosi hamda badiiy tilida namoyon bo‘ladi. Mana shu nuqtai nazardan qaralsa, yangi voqelikni an’anaviy epik dunyo mezonida aks ettirib bo‘lmaganidek, ushbu voqelikning murakkab tabiati an’anaviy epik til qamrovlariga ham sig‘masligi tabiiy.

Xullas, xalq eposi va zamon masalasining poetik til, epik ong, epik bilim hamda epik xotira kabi kategoriyalar bilan bog‘liq murakkab muammolari borki, ular haqida keyinroq batafsil to‘xtalamiz.

Epik ong xalq og‘zaki ijodining epik janrlariga xos voqelikni badiiy idrok etish, talqin va tahlil qilishning tarixan shakllangan g‘oyaviy-estetik kategoriyasidir. Folklorning barcha epik janrlari o‘z imkoniyatlariga mos epik ong qamroviga ega. Doston voqelikni o‘ta keng miqyosda, ertak esa dostonga nisbatan torroq, ammo afsona va rivoyat, latifa va lof janrlariga nisbatan kengroq voqealar tizimi orqali aks ettiradi. Demak, og‘zaki epik janrlarning har biriga xos va tarixan shakllangan badiiy shartlilik qonuniyatlari mavjud bo‘lib, ular ayni shu janrlar doirasida barqaror hamda o‘zgarmas darajaga erishgan. Binobarin, epik ong, birinchidan, voqelikni xalqning yuksak ideallari miqyosida aks ettirishning barqaror hamda universal modelidan iborat. Ikkinchidan, epik ong har bir epik janrning estetik talablari asosida shakllangan tipik shakl va tasvir usullaridan iborat. Mana shu ikki badiiy-estetik mezon voqelikni o‘z o‘lchamlari asosida modellashtirgan holda aks ettiradi.

Albatta, voqelikni badiiy modellashtirish haqidagi qarashlarga akademik M.B.Xrapchenko qattiq e’tiroz bildiradi [7. B. 11–33]. Haqiqatan ham, yozma adabiyotda, ya’ni voqelikni individual ruhiy-badiiy imkoniyatlar asosida aks ettirish badiiy ijodda universal modellashtirishni inkor etadi. Ammo xalq og‘zaki ijodi janrlariga, xususan, epik janrlarga nisbatan modellashtirish jarayoni xos ekanligi har jihatdan o‘zini oqlaydi. Chunki voqealar oqimini muayyan syujetlar qolipiga moslash jarayonida ijodkorlarning an’anaviy tasvir hamda ifoda modellariga murojaat etishlari tabiiy holdir.

Folklorda modellashtirish, birinchidan, ijodkorning voqelikka individual yondashmasliklari bilan bog‘liq. Chunki ijodkor voqelikni o‘zining nuqtai nazari, estetik bahosi bilan aks ettir-

maydi, balki asrlar mobaynida shakllangan mezonlar, usul va vositalar vositasida tasvirlaydi. Qolaversa, tasvirlangan voqelikni g‘oyaviy-estetik jihatdan baholashda ham jamoaning talab-istaklari, an’anaviy estetik mezonlari bilan hukm chiqaradi. Ikkinchidan, ijodkorlarning epik ong ko‘lamlari ham turli tarixiy davrlarda turlicha qamrov va miqyoslarda amal qiladi. Shu jihatdan o‘zbek xalq eposiga xos epik ong ko‘lamiga nazar tashlansa, xalq eposi tarixan bosib o‘tgan uch bosqichga xos epik ong qamrovi mavjudligini ko‘rish mumkin.

Birinchi bosqich – arxaik eposga xos epik ong ko‘lami. Bu bosqichda xalq eposida patriarxal urug‘chilik tartibotlariga xos epik ong ko‘lami amal qilgan. Binobarin, arxaik eposda jamoa talablari emas, balki urug‘ va qabilachilik tartibotlariga aloqador voqea-hodisalar tasvirlangan. Mana shunga asoslanib aytish mumkinki, arxaik eposdagi epik ong ko‘lami klassik eposga nisbatan tor doirada amal qilgan.

Ikkinchi bosqich – klassik eposga xos epik ong ko‘lami. Bu bosqichda epik qahramon u yoki bu urug‘ yoxud qabilaning sha’ni uchun emas, balki muayyan xalqning g‘oyaviy-badiiy talablari, ideallari asosida voqelikni umumlashtiradi, uning barcha xatti-harakati, epik qamrov ko‘lami ham yakka shaxsning yoki alohida qabilaning estetik mezonlari doirasida emas, balki muayyan xalqning, jamoaning estetik mezonlari asosida amal qiladi. Bizga qadar jonli ijroda etib kelgan xalq dostonlari klassik epos namunalaridan iborat bo‘lib, ulardagi epik ong barqaror an’anaviy xarakterga ega.

Klassik xalq dostonlariga xos epik ong miqyosan keng va o‘ta barqarordir. Shu bois xalq dostonlarida voqelik an’anaviy epik ongga mos prinsiplar doirasida badiiy modellashtiriladi.

Uchinchi bosqich XX asrning asosan birinchi yarmida yuzaga kelgan va eposshunoslikda “yangi dostonlar” deb ataluvchi dostonlardan iborat. Bu dostonlarning o‘ziga xos epik ong shakli mavjud va ularda voqelikni universal modellashtirish uchramaydi. Umuman, xalq eposining ushbu taraqqiyot bosqichi haqida maxsus to‘xtalish zarur.

Klassik eposga xos epik ong prinsiplari qanday xarakterga ega ekani, ular ijod va ijroda qay darajada amal qilishi haqida to‘xtalish lozim. Bizning nazarimizda, klassik eposga xos epik ongning voqelikni aks ettirishdagi yetakchi prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Xalq eposining klassik bosqichiga xos epik ong real voqelik va real shaxslarni tasvirlamaydi. Chunki klassik epos real voqelikni aynan aks ettirishni nazarda tutmaydi, u xronika emas, balki real voqelik hamda tarixiy davr kishilarining g‘oya va qarashlarini an’anaviy shakllarda, an’anaviy konflikt va an’anaviy epik motivlar majmuasidan iborat syujet orqali aks ettiradi. Masalan, o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub istalgan dostonni olib qarang, ular asosida aniq g‘oya, hayotiy konfliktlar yotganini ko‘rasiz. Ammo ular klassik dostonlarga xos an’anaviy obrazlarning an’anaviy makon va zamondagi xatti-harakatlari orqali real g‘oya ifodalaydilar. Birgina misol “Ravshan” dostonidagi konfliktning asosi xalqimizning ko‘p asrlik udum va an’analariga borib bog‘lanadi. Ko‘p xalqlarda, jumladan, o‘zbeklarda ota-bobolar o‘zlaridan keyin farzandlari o‘rtasida qarindoshlik aloqalari uzilib, begonalashib ketmasliklari uchun ularni bir-birlari bilan quda-andachilik rishtalari orqali bog‘lab qo‘yishga intilganlar. “Ravshan” dostonida ham Hasanxonning o‘g‘li Ravshanni Avazxonning qiziga unashtirib qo‘yish uchun Go‘ro‘g‘lining o‘zi sovchilikka boradi. Ammo Avazxon Hasanxonni, uning o‘g‘li Ravshanni mensimay, Go‘ro‘g‘lining taklifini rad etib qaytaradi. Bu javobni o‘z qulog‘i bilan tinglab turgan Ravshanning oriyati kelib, Avazdan qattiq ranjiydi. Yunus pari uni yupatish uchun qo‘lidagi xosiyatli uzukni berib, o‘zi Avazning xonadoniga ketadi. Ravshan esa xos uzukka boqib, Zulxumor haqida xabar topadi. Mana shundan keyin u Zulxumorni olib kelishga bel bog‘laydi. Bundan keyingi voqealar eposga xos mubolag‘ali sarguzashtlar va romantikaga boy syujet yo‘nalishida kechadi. U an’anaviy Chambil qal’asidan otlanib chiqib, Zulxumor yashaydigan mamlakatga jo‘naydi.

Ma’lum bo‘ladiki, doston boshlanishidagi g‘oya har qancha betakror va hayotiy bo‘lmasin, uning amalga oshishi, syujet voqealarining oqimi an’anaviy epik ong nazorati ostida kechadi. Mana shu ma’noda aytish mumkinki, individual ijod talablariga to‘g‘ri kelmaydigan voqelikni badiiy modellashtirish klassik xalq eposiga xos epik ong uchun o‘ta darajada mos keladi.

Klassik eposning asosiy talablarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi epik ong shakli voqelikni o‘ziga xos badiiylik mezonlari yordamida modellashtiradi. Ammo bu modellashtirishni voqelikni muayyan turg‘un sxemalarga solish deb tushunmaslik lozim. Klassik eposga xos epik ong voqelikni an’anaviy talablar asosida shunday modellashtiradiki, natijada, tinglovchi an’anaviy motiv hamda syujetni mutlaqo yangi badiiy voqelik tarzida qabul qiladi.

2. Klassik eposga xos epik ong ta’sirida shakllangan syujet voqealari, ulardagi personajlar, ularning xatti-harakatlari, voqealar kechadigan makon va zamon epos ijodkorlari hamda tinglovchilari tomonidan qachonlardir haqiqatan ham mavjud bo‘lgan real shaxslar va ularning xatti-harakatlari sifatida talqin qilinadi, xuddi shunday qabul ham qilinadi. Chunki epik ong shakllanishi jarayonida xalq ongida badiiy to‘qima real voqelik sifatida qabul qilingan. Bunday qarash epik ongning mohiyatini, ruhini belgilaydi. Alpomishning Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarida real tarixiy shaxs sifatida talqin qilinishi, ayrim real joylarni uning xatti-harakati kechgan voqealar bilan bog‘liq, deb izohlanishi fikrimizning dalilidir. Bu narsa, ayniqsa, an’anaviy epos ijodchiligi va ijrochiligi so‘nayotgan hozirgi paytda yanada kuchaydi. Endilikda sof epik ong mahsuli bo‘lmish ayrim epik voqealarning kechishi o‘rnini real makonlar bilan aloqadorlikda izohlashga nafaqat epos muxlislari, hatto ayrim folklorshunoslar ham harakat qilmoqdalar. Masalan, professor M.Murodov va A.Ergashevlarning 1999-yilda chop etilgan “Alpomishnoma” kitobida qahramonlik eposidagi Alpomish chohi, Murodtepa, Qayqubod kamari, Halgunchaktepa kabi sof epik makonlar Surxon vohasidagi real joylar bilan bog‘liq holda izohlanadiki, bu narsaga qo‘shilib bo‘lmaydi [6. B. 59–68].

3. Klassik eposga xos epik ong u yoki bu darajada arxaik epos bilan, xususan, uning mifologik personajlari, makon va zamoni bilan aloqadorlikda shakllangan. Bu narsa epik qahramonlarning g‘ayritabiiy tug‘ilishlarida ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘zbek qahramonlik eposining bosh personaji Hakimbek (Alpomish) Boybo‘ri va Boysarining Hazrati Shohimardonga sig‘inishlari tufayli tug‘iladi. Yoki ulkan nasliy turkumlikning bosh qahramoni Go‘ro‘g‘li marhum ona qornidan go‘rda tug‘ilib, o‘sha atrofda o‘tlab yurgan biyani emib ulg‘ayadi. U doim Hazrati Xizr va chiltonlar himoyasida yashaydi. Ularning homiyligi tufayli u boshqa qiyofalarga evrila oladi va hech qachon g‘animlaridan yengilmaydi. Qolaversa, romantik dostonlarda ishtirok etadigan dev, pari obrazlari ham bevosita arxaik eposga xos mifologik obrazlarning epik ong shakllanishidagi ishtirokining bir shaklidan iborat. Klassik epos namunalaridagi epik zamonning goh qisqarib, goh cho‘zilib turishi va bu o‘zgaruvchanlikning qahramon foydasiga xizmat qilishi ham arxaik eposdagi mifologik qatlamning unsurlaridan iborat.

Yuqoridagilardan bir savol tug‘iladi: arxaik eposdagi mifologik qatlam bilan klassik eposdagi mifologik qatlam o‘rtasida bog‘liqlik mavjud ekan, ular o‘rtasida tafovut ham bormi? Agar tafovut bo‘lsa, u nimada ko‘zga tashlanadi? Bizningcha, tafovut shundaki, arxaik eposda mifologik qatlam arxaik eposga xos epik ongning yetakchi, belgilovchi omili sifatida xizmat qilsa, klassik eposda esa u epik ongning yordamchi omili sifatida ishtirok etadi. Masalan, qahramon biror og‘ir yumushni bajarishga kirishar ekan, dev yoki boshqa demonologik personajlar dastlab unga qarshilik ko‘rsatadilar, ammo qahramon aql va tadbir orqali ularni o‘ziga bo‘ysundirib olgach, ular qahramonning topshirig‘ini bajaradilar, unga ko‘maklashadilar. Bu holat klassik eposga xos epik ongning keng miqyosda ijtimoiylashganligidan dalolat beradi. Muhimi shundaki, epik ong qay darajada ijtimoiylashmasin, baribir, mifologik qatlam bilan butunlay aloqasini uza olmaydi. Chunki bu qatlam epik ongga shiddatli dinamika, uchqur xayolot parvozini bag‘ishlaydi.

Adabiyotlar:

1. *Кабашников К.П.* О современном состоянии календарной обрядности в Белоруссии. // В кн.: Обряды и обрядовый фольклор. – Москва: Наука, 1982. – С. 253–264.

2. *Саримсоқов Б.* “Алпомиш” классик эпос намунаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999. – № 4. – Б. 3–9.

3. *Путилов Б.Н.* Эпический мир и эпический язык // В кн.: История, культура, этнография и фольклор славянских народов. IX международный съезд славистов. Киев. – Москва: Наука, 1983. – С. 170–184.

4. *Путилов Б.Н.* Героический эпос и действительность. – Ленинград: Наука, 1988. – 225 с.
5. *Бахтин М.* Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – Москва : Художественная литература, 1990. – 543 с.
6. *Муродов М., Эргашев А.* Алпомишнома. Биринчи китоб. – Тошкент, “Меҳнат” нашриёти, 1999. – 225 б.
7. *Храпченко М.Б*. Литература и моделирование действительности. // В кн.: Контекст 1973. Литературно-теоретические исследования. – Москва: Наука, 1974. – С. 11–34.
8. *Мирзаев Т.* Эпос и сказитель. – Тошкент: Фан, 2008. – 410 с.
9. *Эшонқул Ж.* Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – 120 б.
10. *Турдимов Ш.* Эпос ва этнос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 93 б.

EPIC MIND, EPIC MEMORY AND EPIC THE RELATION OF KNOWLEDGE

Bahodir R. Rahmonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 32-39.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: epic, folk epic and the question of time, folk epic, folk epic and modernity, epic consciousness, classical epic.

In the article, the objective and subjective reasons for the extinction of the traditions of epic consciousness, epic memory, and epic knowledge in Uzbek folklore are extensively analyzed. Taking into account that no scientific opinion has been expressed about them so far, scientific opinions about their aesthetic essence, their place in Uzbek epic, their organic relationship with each other, and their general and specific aspects have been presented. Also, the classical epic stage of folklore-specific consciousness is analyzed based on the epics “Ravshan” and “Alpomish” belonging to the “Go’roghli” series. The inability of the epic consciousness to respond to the creative process in today’s post-folkloric conditions and the continuing performance in the epics reveal the reasons for the fading of creativity.

Epic consciousness, epic memory, and epic knowledge are among the categories that play an important role in the development of folk art thinking, especially the epic. Special emphasis is placed on the fact that the place of the epic consciousness in the era of the classical epic cannot be used as a criterion for the new modern post-folkloric conditions.

It turns out that the inability of folk epics to describe the current reality is related to the traditionality of the epic world and the hardening of the image methods and principles. Real reality, real space and time do not obey the conventionality of the epic world. This is why folk epics cannot cover today’s reality in all its intensity and dynamics, the strong currents in the human psyche.

Epic consciousness is a historically formed ideological-aesthetic category of artistic perception, interpretation and analysis of reality typical of epic genres of folklore. All epic genres of folklore have an epic scope of consciousness appropriate to their potential. An epic reflects reality on a very large scale, and a fairy tale is narrower than an epic, but wider than the genres of myth and narrative, anecdote and lof. So, each of the oral epic genres has its own and historically formed laws of artistic conditionality, which have reached a stable and unchanging level within these genres. Therefore, the epic mind consists, first of all, of a stable and universal model of reflecting reality on the scale of high ideals of the people. Second, the epic consciousness consists of typical forms and image methods formed on the basis of the aesthetic requirements of each epic genre. These two artistic-aesthetic criteria reflect reality by modeling it on the basis of its dimensions.

So, the folk epic and the issue of time have complex problems related to categories such as poetic language, epic consciousness, epic knowledge, and epic memory, which we will discuss in detail later.

References:

1. Kabashnikov, K.P. (1982) O sovremennom sostoyanii kalendarnoj obryadnosti v Belorussii [On the current state of calendar rituals in Belarus]. In: Obryady i obryadovyj fol'klor [Rituals and ritual folklore]. Moscow: Nauka. Pp. 253-264.

2. Sarimsoqov, B. (1999) "Alpomish" klassik epos namunasi [An example of the classic epic "Alpomish"]. *O'zbek tili va adabiyoti*. No 4. Pp. 3-9.

3. Putilov, B.N. (1983) Epicheskij mir i epicheskij yazyk [Epic world and epic language]. In: Istoriya, kul'tura, etnografiya i fol'klor slavyanskih narodov [History, culture, ethnography and folklore of the Slavic peoples]. IX International Congress of Slavists. Kyiv. Moscow: Nauka. Pp. 170-184.

4. Putilov, B.N. (1988) Geroicheskij epos i dejstvitel'nost' [Heroic epic and reality]. Leningrad: Nauka.

5. Bahtin, M. (1990) Fransua Rable i narodnaya kul'tura srednevekov'ya i Renessansa [Francois Rabelais and the folk culture of the Middle Ages and the Renaissance]. Moscow: Hudozhestvennaya literatura.

6. Murodov, M., Ergashev, A. (1999) Alpomishnoma [Alpomishnama]. The first book]. Tashkent: Mehnat.

7. Hrapchenko, M.B. (1974) Literatura i modelirovanie dejstvitel'nosti [Literature and reality modeling]. In: Kontekst 1973. Literaturno-teoreticheskie issledovaniya [Context 1973. Literary and theoretical studies]. Moscow: Nauka. Pp. 11-33.

8. Mirzaev, T. (2008) *Epos i skazitel'* [Epic and storyteller]. Tashkent: Fan.

9. Eshonqul, J. (2006) *Epik tafakkur tadriji* [Epic thinking gradually]. Tashkent: Fan.

10. Turdimov, Sh. (2012) *Epos va etnos* [Epos and ethnos]. Tashkent: Uzbekiston.

Muallif haqida ma'lumot:

RAHMONOV Bahodir Mamajonovich – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail-bahodir_rahmonov@mail.ru